

Nodir metallar, aqlli materiallar va barqaror texnologiyalar sohasida strategik ilmiy-texnik hamkorlik

2025-yil 29-may kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida Materialshunoslik instituti hamda Koreya sanoat texnologiyalari instituti (KITECH) tarkibidagi Koreya Milliy nodir metallar instituti (KORAM) o'rtasida anglashuv memorandumini imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu hujjat nodir metallar, aqlli materiallar va barqaror texnologiyalar sohasida strategik ilmiy-texnik hamkorlik asoslarini belgilab beradi.





Томонлар амалий tadqiqotlarni rivojlantirish, bilimlar transferi va qo'shma ishlanmalarni yo'lga qo'yish borasida o'zaro qiziqishini tasdiqladilar. Ayniqsa, O'zbekistonda Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil texnologiyalar vodiysi - barqaror texnologiyalar va aqlli materiallar bo'yicha xalqaro ilmiy xab" tashabbusini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu tashabbus

KORAMning global strategiyasiga to'liq mos keladi.

Memorandum quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikni nazarda tutadi:

- kamyob metallar, aqlli materiallar va ekologik toza texnologiyalar bo'yicha qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;
- ekspertlar, olimlar va muhandis-texnik mutaxassislar almashinuvi;
- qo'shma konferentsiyalar, seminarlar va ilmiy maktablar tashkil etish;
- laboratoriya infratuzilmasi, ma'lumotlar va ilmiy nashrlardan birgalikda foydalanish;
- ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish strategiyalarini ishlab chiqish;
- ta'lim va stajirovka dasturlarini amalga oshirish.

Hujjatda intellektual mulkka hammualliflik, moliyalashtirish mexanizmlari va qo'shma loyihalar samaradorligini baholash bo'yicha tamoyillar belgilangan. Memorandumning amal qilish muddati — uch yil bo'lib, o'zaro kelishuv asosida uzaytirilishi mumkin.

Ushbu kelishuvning imzolanishi O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi ilmiy-texnik hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'lib, materialshunoslik sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va texnologik yutuqlarga yo'l ochadi.